

O‘ZBEKISTON-CHEXIYA IQTISODIY ALOQALARI HOZIRGI BOSQICHDA (1991-2013)

1-kurs magistranti: Usmonova Nargiza.

Ilmiy rahbar: dots. Hoshimova M.M.

Chexiya Respublikasi Markaziy Yevropada joylashgan davlat. U endilikda rivojlanib kelayotgan yosh mamlakatlardan biri hisoblanadi. Chexiya o‘zining iqtisodiy jihatdan mustahkamlash uchun dunyoning turli mamlakatlari bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalar o‘rnatgan. Hususan, O‘zbekiston Respublikasi ham Chexiya Respublikasi bilan iqtisodiy sohada aloqa bog‘lagan.

Chexiya Respublikasi va O‘zbekiston respublikasi o‘rtasida diplomatik aloqalar 1993-yil 1-yanvarda o‘rnatildi. 2004-yil oktabrda Toshkent shahrida Chexiya elchixonasining ochilishi munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tardi [1].

1993-yil sentabrda O‘zbekistonga Chexiya Respublikasi sanoat va savdo vaziri V.dloigining tashrifi hamda mazkur tashrif chog‘ida “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Chexiya Respublikasi Hukumati o‘rtasida savdo-iqtisodiy va fan-texnik sohalarda hamkorlik to‘g‘risida Bitim”ning imzolanishi ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining shartnomaviy-huquqiy bazasiga asos bo‘ldi.

1997-yil 14-16-yanvarda O‘zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Chexiya respublikasiga rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi. Tashrif chog‘ida “Investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoyalash tog‘risida” hukumatlararo Bitim, “O‘zbekiston respublikasi Tashqi iqtisodiyot aloqlar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan Chexiya respublikasi Sanoat va savdo vazirligi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida Bitim”, “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va Kommerchni banki o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida Bitim” imzolandi.

Bu imzolangan bitimlar ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yangi pog‘onaga olib chiqdi.

1997-yil 27-mayda Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan Chexiya Respublikasi Sanoat va savdo vazirligi o‘rtasida Ahdlashuv memorandum imzolandi.

1999-yil 20-aprelda O‘zbekistonga Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Milosh Zeman rasmiy tashrif buyurdi. Tashrif natijasida “O‘zaro manfaatli hamkorlikni kelgusida yanada rivojlantirish to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiya” va “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Chexiya Respublikasi hukumati o‘rtasida avtomobil transportida yo‘lovchi va yuklarni xalqaro tashish to‘g‘risida Bitim” imzolandi.

2000-yil 2-4-martda Chexiya respublikasiga O‘zbekiston respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi delegatsiyasi tashrif chog‘ida “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Chexiya Respublikasi Hukumati o‘rtasida ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish hamda daromad va mulk soliqlarini to‘lashdan bosh toritishni bartaraf etish to‘g‘risida Bitim” imzolandi.

2004-yil 28-iyunda Chexiya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida "Iqtisodiy, sanoat va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida" bitim imzolandi [2]. Ushbu bitimda yengil sanoat, transport, energetika, sog'liqni saqlash, kimyo, gaz sanoati, qog'oz sanoati, elektr uskunalari, elektron va elektrotexnika sanoati, tog'-kon sanoati kabi sohalarda hamkorlik qilishga kelishib olishganlar [2].

2004-yil 3-dekabrda mazkur uchrashuvda imzolangan bitimlar va erishilgan ahdlashuvlarning amalga oshirilishini ta'minlash hamda Chexiya Respublikasi bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Chexiya Respublikasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[3] gi qarori chiqdi. Ushbu qarorga asosan Chexiya Respublikasi bilan hamkorlikni kengaytirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqildi [4]. Ushbu tadbirlar rejasining ikkinchi bandi "Savdo-iqtisodiy hamkorlik" masalalariga bag'ishlangan edi.

Xulosa o'rnida aytish joizki Chexiya Respublikasi bilan O'zbekiston respublikasining iqtisodiy sohadagi aloqalari ikki davlat manfaatlarini ifoda etgan holda amalga oshirilmoqda. O'zaro iqtisodiy aloqalar kelgusida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Uz.wikipedia. org. sayti
2. Ўзбекистон Республикаси шартномалари тўплами. 2004 йил 2-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2005 йил 34-36 сон. 264-модда.
4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2006 йил 12-13 сон. 105-модда.

SamDU tarix fakulteti "Umumiy tarix" kafedrası professor-o'qituvchilari, magistrant va iqtidorli talabalarning 2013-yildagi ilmiy tadqiqot ishlari yakunlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. Samarqand 2014. 66-68.